

IJTIMOY HIMOYA TIZIMINING SAMARADORLIGI VA MAQSADLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI

Zubaydullaeva Muxlisa Rustamjon qizi

Mirzajanova Dilnoza Abdullajonovna

Bank moliya akademiyasi magistrantlari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13942121>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy himoya va uning tarixiy rivojlanish tamoyillari tahlil qilingan. Shuningdek, davlatning ijtimoiy himoyasi paydo bo'lishi va rivojlanishiga xos xususiyatlar yoritilgan. Davlatning ijtimoiy himoyasi shakllanish bosqichlari va davlat ijtimoiy maqsadlarining takomillashishi masalalari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy himoya, ijtimoiy funktsiya, davlatning ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy soha.

WAYS TO ENSURE THE EFFICIENCY AND OBJECTIVENESS OF THE SOCIAL PROTECTION SYSTEM

Abstract. This article analyzes the principles of social protection and its historical development. Also, the characteristics of the emergence and development of state social protection are highlighted. The stages of formation of the state's social protection and issues of improvement of the state's social goals were discussed.

Key words: social protection, social function, state social protection, social sphere.

ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ОБЪЕКТИВНОСТИ СИСТЕМЫ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ

Аннотация. В статье анализируются принципы социальной защиты и ее историческое развитие. Также выделены особенности возникновения и развития государственной социальной защиты. Обсуждались этапы становления социальной защиты государства и вопросы совершенствования социальных задач государства.

Ключевые слова: социальная защита, социальная функция, государственная социальная защита, социальная сфера.

KIRISH

Bugungi kunda davlatning ijtimoiy funksiyalari doimiy ravishda murakkablashib bormoqda.

Endi ular ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urta, sog'liqni saqlash, oila, uy-joy, ta'lim sohalariga keng tarqalib bormoqda. Ijtimoiy sohadagi masalalarga qarashlarimiz asta-sekinlik bilan o'zgarib, avvalgi tushunchalar va yondashuvlar yangicha mazmun-mohiyat kasb etmoqda.

Jumladan, "ijtimoiy siyosat", "ijtimoiy himoya", "ijtimoiy sheriklik" kabi tushunchalar avvalgisidan farq qilib, hayotimizda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni tobora ko'proq o'zida aks ettirmoqda. Shu sababli, ijtimoiy siyosat fuqarolarning ayniqsa, yoshlarning faqat moddiy muammolarinigina hal qilishga qaratilgan faoliyat bo'lmay, balki davlat ichki siyosatining asosiy qismini o'zida ifoda etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Davlatning rivojlanishi bilan uning ijtimoiy maqsadi, aholining turmush darajasi, ijtimoiy-iqtisodiy huquqlari, shuningdek, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sohaga aralashuvi chegaralari va

ayniqsa aholining ayrim guruhlari ijtimoiy-iqtisodiy holati haqidagi g'oyalar ham o'zgarib bormoqda. Albatta ijtimoiy funktsiyaning rivojlanishi davlatning ijtimoiy siyosatini qanday amalga oshirishga bog'liqdir.

Darhaqiqat, islohotlarning dastlabki bosqichida ijtimoiy himoya aholining barcha qatlamlariga nisbatan amalga oshirildi. Bunda oylik ish haqlari, pensiya va stipendiyalar oshirilib, aholiga turli xil imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar berildi. Lekin ijtimoiy ximoyalashning mazkur tizimini amalga oshirishda o'ziga xos kamchiliklar ko'zga tashlanib, uni takomillashtirish maqsadida umumiy ijtimoiy himoyadan tabaqalangan holdagi manzilli ijtimoiy himoyaga o'tish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bunda oila aholini ijtimoiy ximoyalashning asosi sifatida belgilanib, ijtimoiy yordamni amalga oshirishda mahalla fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining o'rni va ahamiyatiga e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda ijtimoiy himoya davlatning asosiy funktsiyalaridan biri sanalsa-da, bu hol mazkur funktsiyani amalga oshirishga ko'maklashish maqsadida boshqa nodavlat, jamoat tashkilotlarining faoliyat olib borishini inkor etmaydi. Zero, ijtimoiy masalalarni hal etishda nodavlat yoki jamoat tashkilotlari ko'magidan foydalanish tendensiyasi ko'plab dunyo mamlakatlari tajribasida keng rivojlanib bormoqda.

Mamlakatimizda aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishda davlat asosiy funktsiyalarini o'zidan soqit kilmasdan, aksincha, ularni ruyobga chiqarishda turli korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalari, xayriya fondlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ko'magidan foydalanadi.

Hozirgi kunda ijtimoiy himoya sohasidagi boshqaruv asosan nomarkazlashtirilgan tizimga o'tkazilgan bo'lib, mazkur tizim har bir fuqaroning o'zi yashab turgan joyidagi yig'inda olib boriladigan ijtimoiy himoyaga erkin aralashuvini ta'minlaydigan tamoyil asosiga qurilgan.

Ayniqsa, bugungi kunda joylarda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlatning aholini ijtimoiy himoyalash borasidagi vazifalarni hal etishda faol ishtirok etib, aholiga turli xil ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatilishda, nafaqa va boshqa xil moddiy yordam turlarini yetkazishda, ishsiz shaxslarni ish bilan ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda. Qolaversa, davlatning bu boradagi ayrim vakolatlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkazilishi birinchidan, mazkur tadbirlarning maqsadli va aniq yo'naltirilgan tarzda olib borilishiga, ikkinchidan, jamiyatda insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillarini qaror toptirishga yordam berib, bunda mahallalarning mavqei yanada oshishiga zamin bo'ldi.

Ijtimoiy siyosat davlatning ichki siyosati asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib, uning ijtimoiy tizimi barqarorligini ta'minlash uchun yaratilgan hamda uning maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mamlakat aholisining turmush darajasini oshirish;
- ijtimoiy ziddiyatlarni yumshatish yoki bartaraf etish, jamiyatdagi ma'lum bir muvozanatga erishish;
- iqtisodiyot va madaniyatni yaxshilash.

Ijtimoiy masalalar va ularning hal etilishi davlatimiz o'z oldiga qo'ygan ustuvor vazifa ekanligining mazmun-mohiyati ham aynan inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat ekanligi tamoyili ro'yobga chiqarilishiga qaratilganligida ko'zga tashlanadi. Bunda ayniqsa, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini kuchli ijtimoiy himoya qilish yuzasidan

qilinayotgan ishlar, amalga oshirilib kelinayotgan keng qamrovli, yirik hajmdagi chora-tadbirlarni o'zida aks ettiruvchi davlat dasturlari diqqatga sazovordir.

Davlat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida davlat faoliyatining umumiy tamoyillari ko'rinishida yoki iqtisodiy funksiyalar ko'rinishida paydo bo'ladigan har qanday davlatga xos bo'lgan ijtimoiy funksiyalardan farqli o'laroq, ijtimoiy davlatning funksiyalari davlatning evolyusion rivojlanishi davrida paydo bo'ladi. Davlat ijtimoiy funksiyalarining paydo bo'lishi va rivojlanishi ikki tomonlama jarayon bilan tavsiflanadi. Bir tomondan, davlat rivojlanishining yuqori darajalarda ijtimoiy funksiyalar sonining takomillashishi, ikkinchi tomondan, ijtimoiy funksiyalarning huquqiy, siyosiy va iqtisodiy funksiyalar bilan bir qatorda murakkab funksional tizimlarga qo'shilishi, davlatning barcha funksiyalarini "ijtimoiylashtirish"ga olib keladi.

Shuning uchun hozirgi vaqtda davlat ta'lim, fan, madaniyat va fuqarolarning sog'ligi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Mazkur sohalarda ijtimoiy funksiya ta'lim, ilmiy muassasalar, shuningdek madaniy muassasalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash (moliyaviy, moddiy, dasturiy) shaklda amalga oshiriladi. Ularning ishini boshqarish va tashkil etishga kelsak, ular mustaqildir va o'z faoliyatlarida erkin hamda bunda davlatning aralashuvi mumkin emas.

Davlatning ijtimoiy funksiyasi insonlar uchun birlashtiruvchi prinsipning o'ziga xos vazifasini bajaradi. Mazkur funksiya orqali har bir shaxsning jamoat ishlariga tegishliligi va ishtiroki ta'kidlanadi. O'z navbatida, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj toifalarini qo'llab-quvvatlash muammosi davlatning mamlakat iqtisodiyotni boshqarishda ishtiroki bilan bevosita bog'liqdir.

Haqiqat shundaki, zamonaviy davlat bozor holatidir. Bozor iqtisodiyotining mohiyati tovarlarining erkin almashuvi, xususiy mulkning daxlsizligi va mulkdorning qonuniy manfaatlarini e'tirof etish, mehnat va xususiy tadbirkorlik erkinligidan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ijtimoiy munosabatlarining asosiy tartibga soluvchi bozor qonunlari, asosiysi esa talab va taklif nisbati qonunidir. Ushbu qonunga muvofiq tovarlar va xizmatlar narxлари shakllantiriladi va pirovardida mamlakat aholisining turmush darajasi aniqlanadi.

Ayrim tovarlarga talabning pasayishi tadbirkorni mahsulot sifatini yaxshilashga, ularni ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga, yangi, zamonaviy, yuqori talabga ega mahsulotlar yaratib, fan va texnika taraqqiyotini qo'llab-quvvatlashga majbur qiladi.

Shu o'rinda fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatni barpo etish jarayonida aholini ijtimoiy himoya qilishdagi davlat, uning organlarining o'rni, mavqei masalasi, fuqarolik jamiyatiga o'tilgani sari davlatning mazkur funksiyasi evolyusion tarzda, bosqichma-bosqich jamiyat zimmasiga yuklana borishi, ijtimoiy himoyani amalga oshirish jarayonida bu sohadagi davlat organlari faoliyatining takomillashtirilishi, jamoat birlashmalari, nodavlat tashkilotlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan o'zaro hamkorligi muammolarini hal etishni talab qiladi.

Ijtimoiy funksiyani yanada samarali amalga oshirish uchun ijtimoiy siyosatning asosiy ustuvor yo'nalishlariga e'tibor qaratish lozim, xususan:

- davlat o'z fuqarolarining ijtimoiy holati uchun javobgarligini tan olish;
- barcha fuqarolarga bepul ta'lim va tibbiy xizmatlarni kafolatlash;

- davlat sektori xodimlariga ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar o'z vaqtida to'lanishini kafolatlash;

- ommaviy ishsizlikning oldini olish, bo'shatilgan ishchi kuchlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, davlat fuqarolarning turmush darajasini yaxshilash uchun turli xil chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, bu davlatning to'g'ridan-to'g'ri ijtimoiy funksiyasi shaxsning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlashga, jamiyatning barcha a'zolari uchun, ularning mahsulot ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etishidan qat'iy nazar, normal yashash sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston" NMIU. 2021. 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 11 avgustdagi "Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish hamda kambag'allik bilan kurashish ko'lamini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risid"gi PF-6277-sonli Farmoni.
4. www.lex.uz